



UDK:94(575.1)

Islom M. QARSHIYEV,

Doktorant, PhD, Termiz davlat universiteti, Termiz, O'zbekiston

E-mail: qarshiyevislom96@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0004-0796-1493>

TISU dotsenti, t.f.d A.Tursunov taqrizi asosida

DENOV IN THE FIRST HALF OF THE 20TH CENTURY: HISTORICAL DYNAMICS OF ITS ADMINISTRATIVE-TERRITORIAL STRUCTURE

Annotation

This article analyzes the processes of administrative-territorial development of the Denov area during the first half of the 20th century on the basis of historical sources and statistical data. It examines the administrative structure of the Denov Bekdom during the period of the Emirate of Bukhara, the location of amlokdorliks and rural settlements, the territorial distribution of the population, and demographic characteristics. The study reveals the administrative-territorial evolution of the Denov area within the bekdome-uyezd-district system and identifies the impact of these changes on population settlement and the territorial administration system.

Key words: Denov Bekdom, Yurchi Uyezd, Denov Kent, Denov District, administrative-territorial zoning, amlokdorlik, rural soviet, first half of the 20th century.

ДЕНОВ В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА: ИСТОРИЧЕСКАЯ ДИНАМИКА АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО УСТРОЙСТВА

Аннотация

В статье на основе исторических источников и статистических данных анализируются процессы административно-территориального развития территории Денау в первой половине XX века. Освещаются административная структура Денауского бекства в период Бухарского эмирата, расположение аmlokдорств и сельских поселений, территориальное распределение населения и демографические особенности. В результате исследования раскрывается административно-территориальная эволюция территории Денау в рамках системы бекство-уезд-район, а также определяется влияние данных изменений на расселение населения и систему территориального управления.

Ключевые слова: Денауское бекство, Юрчинский уезд, Денауский кент, Денауский район, районирование, аmlokдорство, сельский совет, первая половина XX века.

DENOV XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA: MA'MURIY-HUDUDIIY TUZILISHI TARIXIY DINAMIKASI

Annotatsiya

Maqolada Denov hududining XX asrning birinchi yarmidagi ma'muriy-hududiy rivojlanish jarayonlari tarixiy manbalar va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Unda Buxoro amirligi davridagi Denov bekligining ma'muriy tuzilishi, amlokdorliklar va qishloq manzilgohlarining joylashuvi, aholining hududiy taqsimlanishi hamda demografik xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida Denov hududining beklilik-uyezd-rayon tizimi doirasidagi ma'muriy-hududiy evolyutsiyasi hamda mazkur o'zgarishlarning aholi joylashuvi va hududiy boshqaruv tizimiga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Denov bekligi, Yurchi uyezdi, Denov kenti, Denov rayoni, rayonlashtirish, amlokdorlik, qishloq soveti, XX asrning birinchi yarmi.

Kirish. XX asrning birinchi yarmi O'zbekiston hududida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-hududiy jihatdan tub o'zgarishlar yuz bergan murakkab tarixiy davrlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 1920-yillardan boshlab Buxoro amirligi hududida sovet boshqaruv tizimining qaror topishi, keyinchalik milliy-hududiy chegaralanish va rayonlashtirish jarayonlarining amalga oshirilishi natijasida an'anaviy ma'muriy birliklarning maqomi va hududiy chegaralari sezilarli darajada o'zgardi. Bu jarayonlar Surxon vohasida ham o'ziga xos kechib, ilgari mavjud bo'lgan beklilik va amlokdorlik tizimining o'rnini yangi sovet ma'muriy-hududiy birliklari egallay boshladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Denov hududining ma'muriy-hududiy o'zgarishlarini o'rganish faqat boshqaruv birliklari nomi va chegaralarining almashinuvi tarixini aniqlash bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayonlarni aholi punktlarining shakllanishi, aholining hududiy joylashuvi, etnik tarkibi, xo'jalik faoliyati va yangi ma'muriy markazlarning vujudga kelishi bilan bog'liq holda tahlil qilish XX asrning dastlabki

yarmida Surxon vohasida kechgan tarixiy jarayonlarning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Muhokama. Denov bekligi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Denov bekligi Buxoro amirligining Sharqiy Buxoro hududidagi muhim ma'muriy birliklaridan biri hisoblangan. Beklik hududi Surxon vohasining markaziy va sharqiy qismlarini qamrab olib, tabiiy-geografik jihatdan Hisor tog' tizmalari, tog'oldi tekisliklari hamda voha hududlari bilan uzviy bog'langan. Mazkur geografik sharoit aholining joylashuvi, xo'jalik faoliyati va qishloq manzilgohlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Denov bekligining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi siyosiy-ma'muriy tarixini o'rganishda uni boshqargan beklar faoliyati alohida ahamiyatga ega. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, XIX asrning 80-yillarida Denov bekligini Abdurahmonbek, 1885-yilda Olmosbiy, 1902–1908-yillarda Qosimbek, 1908-yildan 1920-yil sentabrgacha esa Suvonqulbek boshqargan. Bu davr Denov bekligining Buxoro amirligi tarkibidagi siyosiy-ma'muriy boshqaruv tizimi faoliyat ko'rsatgan so'nggi bosqichini tashkil etadi.

Denov bekligining ichki boshqaruv tizimi amlokdorliklar va ularga qarashli qishloqlardan tashkil topgan. Amlokdorliklar beklikka bo'ysunuvchi hududiy-ma'muriy birlik sifatida qishloqlarni boshqarish, soliq yig'ish va mahalliy xo'jalik masalalarini nazorat qilishda muhim o'rin egallagan. Mavjud ma'lumotlarda Denov bekligi hududidagi Sina, Po'stindara, Qarluq, Durmon, Xidirsho hamda Gardi-Qo'rg'on kabi amlokdorliklar qayd etiladi. Ularning tarkibida ko'plab qishloq va aholi manzillari mavjud bo'lgan.

Denov bekligining aholi joylashuvi bo'yicha mavjud ma'lumotlar qishloqlar o'rtasida demografik jihatdan sezilarli tafovut bo'lganligini ko'rsatadi. Xususan, Sina amlokdorligida jami 1130 hovli qayd etilgan bo'lib, uning tarkibidagi Sina qishlog'ining o'zida 600 hovli mavjud bo'lgan. Oybarakda 100, Xo'jasoatda 90, Hazrat-Vahshuvorda 80, Luppada 50 va Chinorda 50 hovli qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar Sina hududining Denov bekligi doirasidagi yirik aholi joylashuv markazlaridan biri bo'lganligini ko'rsatadi[1].

Po'stindara amlokdorligida jami 355 hovli mavjud bo'lib, uning tarkibida Po'stindara – 40, Degrez – 30, Bulog – 10, Joyti – 25, Kuye-paykal – 25, Bo'z-oynak – 30, Tangis-tepa – 15, Yalti (Jalti) – 5, Ala temir – 20, Kultepa – 70 va Dalvarzin – 60 hovli iborat bo'lgan. Ayniqsa, Kultepa va Dalvarzinning nisbatan ko'p hovliga ega ekanligi mazkur manzilgohlarning mahalliy xo'jalik hayotida muayyan ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi[2:84].

Qarluq amlokdorligida 295 hovli qayd etilgan. Bu hududda Qarluq – 200, Ipak – 30, Batash – 60, Shoxchi – 20, Karsagon – 20, Mirshodi – 20, Alabuloq – 20 va Jindibuloq – 20 hovli iborat bo'lgan. Mazkur ma'lumotlardan ko'rinadiki, Qarluq qishlog'i amlokdorlikdagi asosiy aholi markazi bo'lib, jami hovlilarning katta qismi aynan shu manzilgohda jamlangan[2].

Durmon amlokdorligida jami 485 hovli bo'lgan. Uning tarkibidagi Poyzova – 70, Koni-kon – 15, Ulanko'l – 30, Arg'anchi – 30, Xo'jaabruostona – 30, Jangaka – 20, Jiydabuloq – 100, Baxshitepa – 20, Sabjaran – 30, Kultepa – 70 va Savur – 20 hovli iborat edi. Ayniqsa, Jiydabuloqda 100 hovlining mavjudligi uni Durmon hududidagi yirik aholi manzilgohlaridan biri sifatida ajratib ko'rsatadi[2:86].

Xidirsho amlokdorligida esa jami 620 hovli qayd etilgan. Ushbu hududda Xidirsho – 30, Mo'minqul – 40, Yabi – 40, Dug'oba – 30, Sayrak – 50, Ovchi – 30, Yassitepa – 30, Shayton – 30, Qiziljar – 25, Iqris – 30, Qutichag'li – 15, Pargaguzar – 10, Xo'ja xalqi – 15, Quloqli – 30, Xasantepa – 40, Sulton Sanjar manzili – 20 va Chuqur – 20 hovli mavjud bo'lgan. Bu hududdagi qishloqlarning nisbatan ko'pligi Xidirsho amlokdorligida aholi manzilgohlari tarmog'i ancha keng shakllanganini ko'rsatadi.

Denov bekligining ma'muriy tuzilishida Gardi-Qo'rg'on amlokdorligi ham alohida o'rin tutgan. Mazkur amlokdorlik tarkibida 18 ta qishloq bo'lib, jami 266 hovli qayd etilgan. Ular orasida Denov – 30, Andijon – 20, Xolchayon – 5, Xitayon – 8, G'urbek – 10, Yortitepa – 8, Qorako'z – 30, Zartepa – 10, Eshako'ldi – 10, Tyunishtunash – 10, Marg'ilon – 10, Qulbozor – 5, Qoraxon – 20, Qora kichkina – 10, Xo'jakamar – 10, Chimildiq – 10, Boqati – 30 va SHo'rchi – 30 hovli iborat bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlar Gardi-Qo'rg'on hududida qishloqlar soni ko'p bo'lsa-da, aksariyat manzilgohlar kichik hajmli aholi punktlari bo'lganligini ko'rsatadi[3].

Keltirilgan ma'lumotlar Denov bekligida aholi joylashuvi bir xil bo'lmaganligini ko'rsatadi. Ayrim yirik qishloqlarda yuzlab hovli jamlangan bo'lsa, boshqa manzilgohlarda hovlilar soni 5–20 atrofida bo'lgan. Demak, aholi asosan suv manbalari, sug'oriladigan yerlar, savdo yo'llari va xo'jalik yuritish uchun qulay tabiiy sharoit mavjud

hududlarda zichroq joylashgan. Shu bilan birga, tog'oldi va chekka hududlarda kichik qishloqlar tarmog'i shakllangan.

Denov bekligining aholi joylashuvi uning xo'jalik ixtisoslashuvi bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. Surxon vohasining sug'orma dehqonchilikka qulay hududlarida aholi zichroq joylashgan bo'lsa, tog'oldi va yaylov hududlarida chorvachilik bilan bog'liq kichik manzilgohlar ustunlik qilgan. Qishloqlarning hududiy joylashuvi suv resurslaridan foydalanish, ekin maydonlarining mavjudligi va mahalliy savdo-hunarmandchilik markazlariga yaqinlik kabi omillar bilan belgilanib borgan.

1920-yil 2-sentabrda Buxoro shahrining bosib olinishi bilan, qizil armiya tomonidan amirlik tarkibidagi 27 viloyat (beklik) va 11 tuman ham birin-ketin egallandi. O'zbek davlatchiligining mang'itlar hukmronligi davri shu bilan barham topdi.

Yurchi uyezdi tarkibida Denov kenti. 1920-yil 2-sentabrda Buxoro shahrining bosib olinishi bilan, qizil armiya tomonidan amirlik tarkibidagi 27 viloyat (beklik) va 11 tuman ham birin-ketin egallandi.

1920-yilning 6-8-oktabr kunlari Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyi chaqirilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi e'lon qilindi[5]. 1920-yilning kuzida BXSRda dastlabki ma'muriy hududiy bo'linish o'tkazilib, u viloyatlar, tumanlar kentlar va qishloqlarga ajratilgan. 1924-yil 1-oktabrda BXSRda ma'muriy-hududiy bo'linish qayta o'tkazilib, viloyatlar o'rniga 5 ta okrug tuziladi[6]. Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Turkman (Amudaryo), Sharqiy Buxoro okruglari shular jumlasidandir. Mazkur davrda Surxondaryo okrugi SHerobod, Termiz, Boysun va shuningdek, Sharqiy Buxoro okrugiga Boysun, Sariosiy oblastlari kirgan. Qishloqlarda boshqaruvning tarixan shakllangan oqsoqollik boshqaruvi rad etilib, qishloq sovetlari (selsovetlar) tuzishga kirishildi[10].

1924-yil 18-20-sentabrda bo'lib o'tgan Umumbuxoro xalq vakillarining V qurultoyida BXSRni Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi (BSSR)ga aylantirish to'g'risida qaror qabul qilindi. BSSRning tuzilishi yuqorida turib sun'iy tarzda amalga oshirilgan hodisa edi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, mahalliy xalqlarni tezroq sovetlashtirish bo'lib, ularning ongiga kommunizm mafkurasini singdirishdan iborat edi. 1924-yilda bolsheviklarning "bo'lib tashla, hukmronlik qil" shiori ostida o'tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi natijasida Buxoro respublikasi tugatildi[7]. O'zbekiston SSR tashkil topdi.

1925-yil 29-yanvarda O'zbekiston SSR Markaziy Revolyutsion Qo'mitasi Prezidiumi tomonidan O'zbekiston hududida yagona ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan dastlabki qarorlardan biri qabul qilindi. Mazkur ma'muriy islohot natijasida Surxondaryo hududida yangi hududiy boshqaruv birliklari shakllantirilib, hudud Boysun, SHerobod va Yurchi uyezdlariga ajratildi. Ushbu jarayon avvalgi Buxoro amirligi davridagi beklilik-amlokdorlik tizimidan sovet davrining uyezd-volost-kent boshqaruv tizimiga o'tishning muhim bosqichi bo'ldi.

Yurchi uyezdi hududiy jihatdan uchta volost – Mirshodi, Sariosiy va Yurchi volostlariga bo'lingan bo'lib, ular tarkibida jami 240 ta aholi punkti mavjud edi. Mirshodi volosti o'z navbatida Mirshodi va Denov kentlariga ajratilgan. Shu jihatdan Denov kenti (kentligi) Yurchi uyezdi hududidagi muhim ma'muriy-hududiy birliklardan biri sifatida shakllangan. Denov kentining tarkibiy tuzilishi avvalgi davrdagi hududiy boshqaruv an'analariining ayrim jihatlari qadimiy qolgan holda, yangi sovet ma'muriy tizimiga moslashtirilgan.

Arxiv materiallariga ko'ra, Yurchi uyezdi tarkibidagi Denov kentiga qarashli hududlarda jami 74 ta aholi punkti

mavjud bo'lgan. Denov kenti hududida jami 3 347 ta xonadon va 17 739 nafar aholi istiqomat qilgan. Demak, o'rtacha hisobda bir xonadonga 5,3 nafarga yaqin aholi to'g'ri kelgan[8].

Denov rayoni. O'zbekiston SSR Sovetlari MIK Prezidiumining 1926-yil 11-iyundagi qarori asosida O'zbekiston SSRni rayonlashtirish bo'yicha Markaziy, oblast, uyezd va rayon komissiyalari faoliyati to'g'risida Nizom qabul qilindi.

1926-yil 25–29 sentabrda Samarqandda O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasining V sessiyasi bo'lib, unda rayonlashtirish loyihasi ko'rib chiqildi va tasdiqladi. Ayni vaqtda Surxondaryo okrugi tashkil etildi va u 6 ta rayondan iborat edi[4]. Denov rayoni Surxondaryo okrugi tarkibida bo'lib, unda 33 ta qishloq sovet (selsovet) lari joylashgan: Oqtumshuq, Allatemi, Ambarsoy, Beshkapa, Vaxshivor, Denov, Jinnibuloq, Jigidabuloq, Jobu, Zardako'l, Ipoq, Qorako'z, Qorovultepa, Qarluq, Katta Qarshi, Kaftarxona, Kenagas, Qo'ldosh, Kultepa, Mirshodi, Payzava, Sina, To'ngiztepa, Tortuvli, Ulyamqul, Ushor, Xayrobod, Xojasoat, Xidirsho, Chuqtosh, Sho'rchi, Yurchi, Yangibozor[9].

Denov hududining ma'muriy-hududiy rivojlanishida 1941-yil muhim bosqichlardan birini tashkil etadi. 1941-yil 6-martda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining "O'zbekiston SSR tarkibida Andijon, Namangan va Surxondaryo viloyatlarini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur huquqiy hujjat bilan Buxoro viloyati tarkibidagi Surxondaryo okrugi negizida Surxondaryo viloyati tashkil etilib, uning ma'muriy markazi Termiz shahri etib belgilandi[11].

Farmonda Surxondaryo viloyati tarkibiga Termiz va Boysun shaharlari hamda Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Sariosiyo, Termiz, SHERobod va SHo'rchi rayonlari kiritilgani qayd etilgan. Shu tariqa Denov hududi yangi tashkil etilgan viloyatning ma'muriy birliklaridan biri sifatida rasman mustahkamlandi.

1948-yil 1-oktabr O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga oid statistik ma'lumotlarga ko'ra, surxondaryo oblasti tarkibida bo'lgan Denov rayonida 12 ta qishloq soveti mavjud bo'lgani qayd etiladi. Ular orasida Anbarsoy, Vaxshivor, Denov, Kattaqarshi, Kenagas, Pistamozor, Sina, Tortuvli, Uyanko'l, Xayrobod, Xojasoat va Yurchi qishloq sovetlari mavjud bo'lgan.

Xulosa. XX asrning birinchi yarmida Denov hududining ma'muriy-hududiy tuzilishi siyosiy va boshqaruv tizimidagi tub o'zgarishlar ta'sirida bir necha bosqichda shakllandi. Tadqiqot natijalari Denov hududining ma'muriy maqomi Buxoro amirligi davridagi beklilik–amlokдорlik–qishloq tizimidan sovet davridagi uyezd–volost–kent, keyinchalik esa rayon–qishloq soveti tizimiga o'tganini ko'rsatadi. Bu jarayon hududiy boshqaruv shaklining oddiy almashinuvi emas, balki mahalliy ma'muriy tizimning siyosiy va institutsional jihatdan qayta tashkil etilishi bilan kechgan murakkab tarixiy jarayon bo'lgan.

Umuman olganda, Denov hududining XX asrning birinchi yarmidagi ma'muriy-hududiy rivojlanishini "Denov bekligi → Yurchi uyezdi tarkibidagi Denov kenti → Denov rayoni" tarixiy ketma-ketligi asosida tavsiflash mumkin. Ushbu jarayon davomida nafaqat ma'muriy birliklarning nomi va maqomi, balki hududiy boshqaruv tamoyillari, aholi punktlarining ma'muriy bo'ysunuvi va statistik hisobga olish tizimi ham o'zgardi.

Shuningdek, tadqiqot Denov hududidagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlar aholi joylashuvi va tarixiy manzilgohlar tizimining to'liq uzilib ketishiga olib kelmaganini ko'rsatadi. Aksincha, ko'plab tarixiy qishloq va hududiy nomlar yangi ma'muriy tizimda ham saqlanib qolgan. Shu jihatdan Denov tarixini o'rganishda ma'muriy-hududiy o'zgarishlarni demografik jarayonlar, aholi punktlarining shakllanishi va tarixiy-geografik davomiylik bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Tursunov S., Turdiyev T. Denov – Toshkent. "Fan" 2009-y. - B. 151.
2. Qobilov E. Surxon vohasi xo'jaligi. (XIX – XX asr boshlarida). – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 84-86.
3. Qarshiyev A.A. Surxon vohasi bekliliklarining Buxoro amirligida tutgan o'rni (Buxoro "Qo'shbegi" arxivi materiallari asosida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Termiz, 2025. – B. 177.
4. Материалы по районированию Средней Азии. Кн 1. Территория и население Бухары и Хорезма. Ч. 1. Бухара. – Ташкент: Изд. Комиссии по районированию Средней Азии, 1926. – С. 122.
5. O'z MA, R-47-fond, 1-ro'yhat, 5-yig'majild, 65-varaq.
6. O'z MA, R-47-fond, 1-ro'yhat, 320-yig'majild, 10-varaq.
7. Eshonov O. Buxoroda xalq revolyutsiyasining g'alabasi // "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar". – Toshkent, 1970. – №8. – B. 21.
8. Список населенных мест Узбекской ССР и Таджикской АССР. Выпуск VII: Сурхан-дарьинская область. Издание Ц. С. У. Уз. ССР. Самарканд, 1925.
9. Список населенных пунктов Узбекской ССР 1928 года. Часть IX: Округ Сурхан-дарья. Издание ЦСУ УзССР. г. Самарканд, 1929 г.
10. Allanazarov M.M. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida milliy rahbar arboblal va kadrlar faoliyati (1920–1924 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Termiz, 2022. – B. 15-16.
11. Qarshiyev, I. (2025). Surxondaryo okrugi (viloyati)da ma'muriy-hududiy o'zgarishlar tarixi. Sharq tarixi, siyosati va huquqi jurnali, 5(12), 19–25. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-05-12-04>